Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazining
VIRUSOLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

151 - son BUYRUQ

«21 » 05. 2026. **Toshkent sh.**

“Doimiy faoliyati ko‘rsatuvchi hay’at guruhini qayta tuzish to‘g‘risida”

Shifoxonada dori vositalari va tibbiy asbob-uskunalarni sotib olish, taqsimoti va ulardan foydalanish, nazoratini kuchaytirish va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash profilaktika muassasalarida tashkil etiladigan Doimiy Faoliyatidagi Hay’ati to‘g‘risida”gi 2025-yil 31-yanvardagi 32-sonli buyrug‘i va 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-sonli farmoni va 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4055-sonli qarorini bajarish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Shifoxonada 7 nafar xodimlardan iborat Doimiy Faoliyat Hay’ati tuzilsin:

Gurux raisi: Bosh shifokor muovini Raxmanov M.I.

A’zolari: Gepatomarkaz mudiri - Ismailov U.Yu.

ORIT mudiri- Fayzullayev X.N.

Dorixona mudiri - Toshbekova L.U.

Iqtisodchi - Abzalova N.

Bosh hamshira - Gulyamova S.Z.

Katta hamshira - Imomxodjayeva D.

2. Shifoxona Doimiy Faoliyat Hay’ati raisi- M.I.Raxmanov.

2.1. DFH faoliyati O‘zbekiston Respublikasi SSVning 31.01.2025-yildagi 32-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq tashkillashtirilsin (ilova 1).

2.2. Ishchi guruhning ish rejasi tuzilsin va tasdiqlansin (ilova 2).

2.3. Tekshiruv har oyda o‘tkazilsin va dalolatnomalar tahlil etilsin.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: GO32347021

2.4. Qilingan ishlar to‘g‘risida axborot har oyda bosh shifokorga berilsin.

3. Dorixona mudiri L.U.Toshbekovaga va DFH gurux a’zolariga:

3.1. Shifoxonada SSVning amaldagi dori-darmonlarga oid buyruqlari bajarilishini nazorat qilish, dori-darmon, tibbiy ashyo, tibbiy asbob-uskunalarning ehtiyojini aniqlash, sotib olish, taqsimlash va saqlash tarqatishni nazorat qilish xisobotini olib borish, dori-darmonlarga ajratilgan budjet mablag‘larini maqsadli ishlatilishi va imtiyozli retseptlar asosli yozilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.2. DFH qarorlari, yig‘ilish bayonnomalari va harakatdagi xujjatlarni saqlash muddati 3 yil etib belgilansin.

4. RIEMYUvaPKIATMVITI 2026-yil 14-yanvardagi 18-sonli buyruq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor **E.I.Musabayev**

OLU3494
OLU3494
OLU3494
OLU3494
OLU3494